

RAQAMLI NAZORAT-KASSA MASHINALARINING FISKAL NAZORATDAGI O'RNI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18906834>

Jo'raboyeva Sevinch

Andijon davlat texnika instituti

"Avtomobilsozlik va transport" fakulteti

"Logistika" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi haqida umumiy ma'lumot berib, soliq hisobini raqamlashtirish, yashirin iqtisodiyotni kamaytirish, va davlat budjetini rivojlantirish kabi mavzular yoritib beriladi. Shuningdek, elektron nazorat-kassa qurilmalarining tadbirkorlarning ravnaqidagi o'rni va foydalanish prinsiplari haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar

fiskal-nazorat, nazorat-kassa qurilmalari, dasturiy ta'minot, fiskal modul, virtual nazorat qurilmalari, onlayn NKM (nazorat kassa mashinalari).

Kirish. Mamlakatimizda soliq ma'murchiligini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan harakatlar 2017-2021 yillardan boshlangan bo'lsa, bu mavzu hozirgacha eng keng muhokama qilinayotgan va muhim mavzulardan biri hisoblanadi. Soliq hisoblarini raqamlashtirish davlat kadrlari uchun ham, tadbirkorlar uchun ham ba'zi qiyinchiliklarni tug'dirgan bo'lsa, ammo hozirda uning imkoniyatlari juda keng va foydali tomonlari bisyor. Davlat organlaridagi mas'ullar uchun, va bir vaqtning o'zida tadbirkorlar uchun ham texnik savodxonlikning kamligi, tizimni tushunmaslik, ma'lumotlarni xato kiritish, internetning uzilib qolishi, va soliq qonunchiligi haqida kam ma'lumotga egaliklari tufayli jarimalarga tushib qolishlari, noto'g'ri hisobot yuritish va shu bilan birgalikda davlat hisobini xatolikka olib kelishi kabi muammolar mavjud edi. Shuning uchun, raqamlashtirish texnologiyalari va murakkab infratuzilma tufayli ular malaka oshirish dasturlarida ta'lim olishlari yoki biriktirilgan mas'ullarga ega bo'lishlari darkor edi. Yurtimizda ikkinchi usul yordamida ya'ni kerakli ta'limga ega bo'lgan mas'ul kadrlarni tadbirkorlarga biriktirish orqali hisob-kitobni to'g'ri amalga oshirish va hisobotlarni fiskal-nazoratga kiritish osonlashdi va kerakli ta'lim va ma'lumotlar berildi. Yurtimizda texnik savodxonlikning keng

ommalashmaganligi va texnik savodsizlik mavjud bo'lganligi tufayli. Bunday islohotlar hozirgi davrgacha amalga oshirilib kelinmoqda.

“Hozirgi paytda tadbirkorlik subyektlari tomonidan hisoblanadigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar summasini kamaytirish, naqd pul tushumlarini bank kassalariga topshirmasdan yashirish maqsadida xaridorlarga nazorat-kassa mashinasi chekini bermaslik, nazorat-kassa mashinasini nosoz holatga keltirish, fiskal xotiradagi ma'lumotlarni qasddan o'zgartirish, nazorat-kassa mashinalarini yo'qotish orqali amalga oshirilgan tovar aylanmalari to'g'risidagi ma'lumotlar soxtalashtirilmoqda. Bundan tashqari, yirik savdo tarmoqlarida tovarlar hisobini yuritish, xaridorlarga nazorat-kassa mashinasidan chek berish yagona kompyuter tizimi orqali amalga oshirilishi sababli ulardagi naqd pul tushumlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchliligi kafolatlanmaydi. Naqd pul tushumlarining haqiqiy hajmini aniqlash maqsadida davlat soliq xizmati organlari xodimlari juda ko'p vaqt talab etiladigan xronometraj tadbirlariga muntazam ravishda jalb qilinmoqda.” [1]. Bunday qurilmalar nafaqat soliqni hisoblashga, balki iqtisodiyotni to'g'ri yuritishga, xatoliklarsiz va kamchiliklarsiz hisob-kitob uchun, yashirin hisoblarni kamaytirish uchun ham o'z hissasini qo'shadi. Bu o'z o'rnida mamlakat va tadbirkorlik iqtisodiyoti uchun aniqlikka ega bo'lish va istiqbolga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Savdo va xizmat ko'rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5813-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda tadbirkorlik subyektlarining fiskal modulga ega bo'lgan onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimidan foydalanishini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi”[2]. Bunday qurilmalar hozirda davlat va nodavlat korxonalar va tadbirkorliklarda foydalanilmoqda. Bank iqtisodiyot tizimlari, davlat xizmatlari markazi, kommunal to'lovlarni amalga oshirish idoralari va umumiy holda naqd pul va plastik karta orqali savdo-sotiq yoki iqtisodiy munosabatlarini amalga oshiruvchi barcha subyektlar foydalanishadi. Bu qurilmalar har bir iqtisodiy tushumni ro'yxatga olish va rasmiylashtirishga xizmat qiladi va aynan bu hisobotlar yordamida davlat ma'murlari adolatli soliq majburiy to'lovlarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Raqamli nazorat-kassa qurilmalarining turlari. Bunday qurilmalar asosiy ikki turga: Onlayn-NKM (Nazorat Kassa Mashinasi) va Virtual nazorat kassa apparatlariga bo'linadi.

Onlayn NKM qurilmalari- iqtisodiy hisobotlarni onlayn holatda qayd etadigan qurilma hisoblanib, bu bir vaqtning o'zida mijozga chek taqdim etadi, onlayn

ravishda hisobotni fiskal bo'limga yuboradi va rasmiylashtiradi. Ya'ni u onlayn tarzda o'zi hisobot topshiradi va bir vaqtning ozida buni chek orqali mijoz uchun ham davlat soliq bo'limi uchun ham rasmiylashtiradi va hisoblay oladi.

Onlayn NKM qurilmalarining afzalliklari va kamchiliklari. Afzalliklari jihatidan onlayn NKM qurilmalari qulay, ishonchli va vaqtni tejovchi hisoblanadi. Ular real vaqt rejimida chek chiqaradi, QR kod taqdim etadi, kunlik hisobotlarni yaratadi, savdo haqida ma'lumotlarni soliq tizimiga yuboradi, savdoni aniqlashtiradi, yashirin savdoni cheklaydi, hisobotlarni statistik rejimlar orqali tushunishga oson qilib yarata oladi. Bu esa tadbirkorlarga vaqtni tejashga, aniqlikka ega bo'lishga va hamma ishlarni qonuniy amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu qurilmalarning xotirasi mustahkam hisoblanib internetdan uzilib qolganda ham hisobotlarni saqlay oladi va turli hil bank kartalarini qabul qiladi (UZCARD, HUMO, VISA kabilarni). Onlayn NKM qurilmalarining kamchilik jihatlariga keladigan bo'lsak, ular boshlanishida xarajatlarga sabab bo'lishi mumkin, apparatni sotib olish uni texnik jihatdan sozlash va dasturlarni yuklash kabilarni talab qiladi. Shuningdek, internet aloqasisiz bu qurilmalar ishlay olmaydi, hisobotlar yarataydi, chek chiqarmaydi va hisoblamaydi. Natijada tadbirkorlikda savdo to'xtab qoladi. Ular ishdan chiqishi mumkin, printer buzilishi yoki ichki qismlariga zararlanishi va ta'mirlashga muhtoj holga kelishi mumkin, doimiy dasturiy yangilanishlarni talab qilishi mumkin, bu esa o'z vaqtida ma'lum harajatlarni talab qiladi.

Virtual nazorat kassa qurilmalari- telefon, planshet yoki kompyuterlar uchun ishlab chiqilgan dastur hisoblanadi. Bu dasturni gadjetga o'rnatib olish mumkin va savdo cheklarini printer orqali chiqarish mumkin. Virtual nazorat-kassa qurilmasi ham huddi onlayn NKM bajara oladigan funksiyalarga ega bo'ladi. Misol uchun, chek yaratadi, QR kod taqdim etadi, real vaqt rejimida onlayn hisobotlar yaratadi va fiskal nazorat bo'limiga yuboradi. Qiqa qilib aytganda, virtual nazorat-kassa qurilmalari ham onlayn NKM qurilmalariga o'xshash ammo u apparat emas balki, dasturiy ta'minot hisoblanadi.

Virtual nazorat-kassa qurilmalarining afzalliklari va kamchiliklari. Virtual kassa qurilmalari kamxarjligi bilan afzalliklarga ega. Ular dastur hisoblanib, alohida apparat sotib olish zarur emas, telefon, planshet yoki kompyuter kabi gadjetlarga osongina o'rnatib olish mumkin. Ularni masofadan boshqarish va mahsulotlar ro'yxatini onlayn holatda yaratish mumkin. Elektron qulayliklari, chek va QR kodlarni onlayn ulashish mumkin, QR kodlar orqali cheklarni tarqatish va savdoni tezlashtirish imkoniyatlariga ega. Kamchilik jihatlariga keladigan bo'lsak, boshlanishida ushbu dasturni sozlash va tushunish qiyin bo'lishi mumkin,

cheklarni chop etish uchun printer sotib olishga to'g'ri keladi, doimiy internetga ulangan bo'lishi kerak, onlayn rejimda ishlaganligi sababli kiberxavfsizlik xizmatlarini talab qilishi mumkin. Ular texnik jihatdan ishdan chiqishi, yangilanishlarga muhtoj bo'lishi mumkin. Bu esa texnologik va dasturiy bilimga ega bo'lmagan tadbirkorlar uchun tushunmovchiliklarga sabab bo'lishi mumkin.

"Vazirlar mahkamasining 2019-yil 23-noyabrda 943-son qaroriga 1-ilova aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qo'llash tartibi to'g'risida nizomida aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiradigan barcha yuridik shaxslar, yakka tartibdagi va oilaviy tadbirkorlar (keyingi o'rinlarda tadbirkorlik subyektlari deb ataladi) tomonidan fiskal modulga ega bo'lgan onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassalarni qo'llash tartibini belgilaydi.

virtual kassa – fiskal modulga bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan, fiskal hujjatlarni hosil qiluvchi va hosil qilingan fiskal hujjatlarni fiskal ma'lumotlar operatoriga real vaqt rejimida uzatishni ta'minlovchi, cheklarni qog'ozga chop etish yoki ularni elektron shaklda yuborish funksiyasiga ega bo'lgan dasturiy mahsulot va ularning komplekslari;

fiskal ma'lumotlar operatori (keyingi o'rinlarda operator deb ataladi) – onlayn rejimida fiskal ma'lumotlarni mustaqil va doimiy ravishda qabul qilish, qayta ishlash va saqlash ishlarini bajaruvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi "Yangi texnologiyalar" ilmiy-axborot markazi DUK;

fiskal modul – operator tomonidan ishlab chiqilgan, maxsus himoyalangan dasturiy ta'minotga ega bo'lgan, o'zi ulangan qurilmaning hisoblash quvvati va dasturiy mahsulotini ishlatmagan holda fiskal ma'lumotlarning qonun hujjatlarida belgilangan tartibda milliy standartlar asosida kriptografik himoyasini ta'minlovchi fiskal xotira vazifasini bajaruvchi ixtisoslashtirilgan fizik qurilma;

fiskal ma'lumotlar – hisob-kitoblar to'g'risidagi ma'lumotlar, hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyekti to'g'risida ma'lumot, hisob-kitobda foydalaniladigan onlayn-NKM, virtual kassalar yoki operator tomonidan yaratilgan boshqa ma'lumotlar;

fiskal modul reyestri – soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tgan fiskal modul to'g'risidagi ma'lumotlar to'plami;

foydalanuvchi – sotilgan tovarlar (bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar) uchun aholi bilan pulli hisob kitoblarni amalga oshirishda onlayn-NKM va (yoki) virtual kassadan foydalanadigan tadbirkorlik subyekti;"[2]

"Dasturlash rejimi – mashina asosiy kassa operatsiyalarini bajarishga qoyiladi. Bu rejimga kirish uchun «OG» markirovkali mashina kalitini OG/P/T holatiga

keltiriladi va klaviatura orqali «999» soni teriladi va «IT» tugmachasi (jami) bosiladi. Shundan so'ng 10 ta mashinadagi dasturdan biri tanlanadi. Chekni boshi va oxirini dasturlashda rus va lotin simvollarda dasturlanadi.

Bunda qator 16 ta simvol uzunligida chekning boshi bilan va oxiri har biri olti qatordan oshmasligi lozim. Chekning boshi va oxiri dasturlangandan so'ng «IT» (jami) tugmacha bosilsa dasturlangan matn bosmadan chiqarish qilinadi. Tovar bahosi kodini dasturlashda 200 gacha tovarlar bahosi dasturlash mumkin va kassir ishini tezlashtiriladi. Sonli klaviatura yordamida uch belgili tovar bahosi kodi, tovar turgan seksiya raqam iva tovar bahosi chiqariladi. «IT» tugmacha bosilishi bilan chek va nazorat lentasiga barcha tovar bahosi haqidagi informatsiya Chiqariladi"[3]

Ushbu qurilmalardan foydalanishni bilish nafaqat tadbirkorlar balki davlat organlariga ham zarur hisoblanadi. Dasturiy ta'minot haqida yetarli bilimga ega bo'lish, qurilmani ishga tushirish, sozlash va amallarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelmaslik kabilar zarurdir. Ushbu qurilmalar o'zbek tilida ma'lumotlar va hujjatlar taqdim etganligi sababli, tushunish va amallarni bajarish nisbatan oson hisoblanadi. Yetarli malaka oshirish va bilimlarni o'zlashtirish orqali, bunday imkoniyatga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://kun.uz/news/2017/10/02/nazorat-kassa-masinalarini-islatis-pohtaht-va-jirik-saarlarda-mazburij?q=%2Fnews%2F2017%2F10%2F02%2Fnazorat-kassa-masinalarini-islatis-pohtaht-va-jirik-saarlarda-mazburij#>
2. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-noyabrdagi 943-son qaroriga 1-ILOVA. Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshirishda onlayn nazorat-kassa mashinalari va virtual kassa tizimini qo'llash tartibi to'g'risida NIZOM 1-bob. Umumiy qoidalar.
3. Xizmat ko'rsatish korxonalarining elektron texnikasi, o'quv qo'llanma J.M.Qurbonov, R.J.Qurbonova